
TOSHLOQ TUMANIDA 3 DEKABR — «XALQARO NOGIRONLAR KUNI» MUNOSABATI BILAN BAYRAM TADBIRI O‘TKAZILDI

Toshloq tumanida nogironligi bo‘lgan shaxslarning manfaatlarini himoya qilish, ularni jamiyatimizning to‘laqonli a‘zosi ekanliklarini ko‘rsatish maqsadida turli tadbir va islohotlar amalga oshirilmoqda.

Bugun «Ufq» to‘yxonasida Nogironlar kuni munosabati bilan tuman “Saxovat va ko‘mak” jamg‘armasi tomonidan bayram tadbir bo‘lib o‘tdi.

Tadbirda so‘z olganlar 3 dekabr sanasida nogironligi bo‘lgan shaxslar kunining nishonlanishidan asosiy maqsad butun dunyoda amalga oshiriladigan dastur va loyihalarda nogironlar boshqa nogiron bo‘lmagan kishilar bilan teng huquqlilik asosida ishtirok etishini, nogironlarning manfaatlarini, huquqlari inobatga olinishini, bu borada esa mamlakatimizda keng qamrovli ishlar olib borilayotganligini aytib o‘tdilar.

Bayram tadbirida tuman hokimi Abduqahhor Djurabayev hamda tuman prokurori Shuhratjon Musayevlar tadbir ishtirokchilariga esdalik sovg‘alarini topshirdilar. Konsert dasturida san‘atkorlarning chiqishlari namoyish etilib, tadbir qatnashchilariga bayromona kayfiyat ulashildi.

2023-12-05 11:48:10